XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 19-fevral VII-19-12-8-110-K/26 Boysun tumani

Boysun tumanidagi ayrim ko‘chaning nomini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 19-noyabrdagi 11-01/122-son “Boysun tumanidagi ayrim ko‘chaning nomini tasdiqlash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 21-noyabrdagi 18-07/312-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 15-dekabrdagi 2/2-754-son “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 19-noyabrdagi 11-01/122-son “Boysun tumanidagi ayrim ko‘chaning nomini tasdiqlash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining viloyat komissiyasining 2025-yil 21-noyabrdagi 18-07/312-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr

agentligining 2025-yil 15-dekabrdagi 2/2-754-son “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlari ma’qullansin.

2. Tumanda nomi tasdiqlanayotgan ko‘chaning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kadastrlar palatasi tuman filiali (M.X.Jo‘rayev), tuman statistika bo‘limi (A.R.Saidov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomi tasdiqlanayotgan ko‘chani, shuningdek, yangidan nomlangan ko‘chani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (F.T.Murtazoyev) nomi tasdiqlanayotgan ko‘chada yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (F.F.Fayzulloyev), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (Z.A.Raxmonov) hududlarda yangi nomlangan aholi punktlarining tarkibiy qismlarining yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgi, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (Y.Sh.Xoliyorov) mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasmiy e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.B.Bohavaddinov) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.M.Allanov) zimmalariga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **XAITOV BEKMUROT KARIMOVICH**

Xalq deputatlari Boysun tumani
Kengashining
2026-yil 19-fevraldagi
VII-19-12-8-110-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tumanda nomi tasdiqlanayotgan ko‘chaning ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	Darband MFY	Nomsiz ko‘cha	Qaynar buloq	**Qaynarbuloq-** “Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi.Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.